FARG‘ONA VILOYATI PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Xo‘jaxonova Moxinur Farxodjon qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining
Toshkent filiali magistranti
Abbosov Umidjon Maxmudjonovich
Vitebsk davlat veterinariya akademiyasi magistranti
Eshmatov G‘ayrat Xurram o‘g‘li
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining
Toshkent filiali dotsenti
Xo‘jaxonov Shoxruxon Idrisxo‘ja o‘g‘li
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining
Toshkent filiali v.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston parrandachilik xo‘jaliklarida uchraydigan yuqumli kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari umumiy tarzda yoritilgan. Unda bioxavfsizlikni ta’minlash, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, o‘z vaqtida vaksinatsiya o‘tkazish hamda parrandalarni to‘g‘ri va muvozanatli oziqlantirish muhim omillar sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, kasalliklarni erta aniqlash, karantin choralarini qo‘llash va veterinariya nazoratini kuchaytirish orqali parrandalar sog‘ligini saqlash hamda xo‘jaliklar samaradorligini oshirish mumkinligi ta’kidlangan.

Аннотатсия: В данной статье в общем виде рассмотрены меры профилактики инфекционных заболеваний, встречающихся в птицеводческих хозяйствах Узбекистана. В ней отмечается, что важными факторами являются обеспечение биобезопасности, соблюдение санитарно-

гигиенических требований, своевременная вакцинация, а также правильное и сбалансированное кормление птицы. Кроме того, подчеркивается, что сохранение здоровья птицы и повышение эффективности хозяйств возможно за счёт раннего выявления заболеваний, применения карантинных мер и усиления ветеринарного контроля.

Abstract: This article provides a general overview of measures for preventing infectious diseases in poultry farms in Uzbekistan. It highlights that important factors include ensuring biosecurity, adhering to sanitary and hygienic requirements, timely vaccination, and proper, balanced feeding of poultry. It is also emphasized that maintaining poultry health and improving farm efficiency can be achieved through early disease detection, implementation of quarantine measures, and strengthening veterinary control.

Kalit so'zlar: Dezinfeksion tadbirlari, Xaqiqiy dezinfeksiya, Dezinseksiya, Deratizatsiya, Fizikaviy usul, Kimyoviy usul, gradus.

Ключевые слова: Меры дезинфекции, фактическая дезинфекция, дезинсексия, дератизатсия, физический метод, химический метод, степен.

Keywords: Disinfection Measures, True Disinfection, Disinsection, Deratization, Physical Method, Chemical Method, Degree.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda veterinariya amaliyotida, xususan parrandachilik sohasida mavjud imkoniyatlar va ishlab chiqarish zaxiralaridan to‘liq foydalanilmayapti. Bu borada muhim vazifa — parrandalarni sog‘lom holda parvarish qilish va ularning mahsuldorligini oshirishdan iborat. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, parrandachilikka sezilarli darajada iqtisodiy zarar ayrim yuqumli va invazion kasalliklar, shuningdek parrandalarni saqlash va oziqlantirish bilan bog‘liq kamchiliklar oqibatida yuzaga kelmoqda.

Parrandachilik xo‘jaliklariga katta talofat yetkazadigan bir qator yuqumli kasalliklar (tuberkulyoz, yuqumli laringotraxeit, yuqumli bronxit, Nyukasl kasalligi, Marek kasalligi, gripp, mikoplazmoz va boshqalar) bilan bir qatorda, shartli patogen mikroorganizmlar (Salmonella, Escherichia coli, Pasteurella)

chaqiradigan kasalliklar ham uchraydi. Ushbu mikroorganizmlarning ayrimlari hatto sog‘lom parrandalarda ham uchrashi mumkin va har doim ham aniq klinik belgilar bilan kechadigan kasallikni keltirib chiqarmaydi.

Bundan tashqari, shartli patogen mikroorganizmlar organizmda yashirin holda saqlanib, mikrob tashuvchanlik holatini yuzaga keltiradi. Ko‘rinishidan sog‘lom bo‘lgan parrandalarda serologik tekshiruvlar natijasida aniqlangan shartli patogen mikroorganizmlar turli noqulay omillar (stress, shovqin, transport ta’siri, sovuq yoki haddan tashqari issiq harorat, yetarli darajada oziqlantirilmaslik, suvsiz qolish, ratsionning sifatsiz va to‘liq emasligi, shuningdek turli surunkali, latent, yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklar) ta’siri ostida faollashib, yuqumli kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi kurashish biroz murakkab, chunki ular chaqiradigan kasalliklarni aniqlash qo‘shimcha laboratoriya va diagnostik tekshiruvlarni talab etadi. Ularni davolash jarayoni esa ko‘proq xarajatni talab qilib, xo‘jaliklarga iqtisodiy zarar yetkazadi. Shu sababli yuqumli kasalliklarni o‘rganish, ularning oldini olish va davolash chora-tadbirlarini doimiy ravishda takomillashtirish, antibiotiklarni qo‘zg‘atuvchilarning sezgirlik darajasiga muvofiq qo‘llash hamda profilaktika choralarini kuchaytirish orqali parrandalarning bosh sonini saqlab qolish va yuqori mahsuldorlikka erishish veterinariya xizmatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi parrandachilik xo‘jaliklarida uchraydigan yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalish mexanizmlari va epizootologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda ularning oldini olishga qaratilgan samarali profilaktik chora-tadbirlar tizimini ilmiy asoslashdan iborat. Shuningdek, mavjud veterinariya-sanitariya talablariga rioya etish darajasini baholash, zamonaviy dezinfeksiya, vaksinatsiya va bioxavfsizlik choralarining samaradorligini tahlil qilish orqali parrandachilik xo‘jaliklarida sog‘lom epizootik muhitni ta’minlash yo‘llarini ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotning vazifalari: Mazkur maqsadga erishish uchun parrandachilik xo‘jaliklarida keng tarqalgan yuqumli kasalliklarning asosiy turlari va ularning qo‘zg‘atuvchilarini aniqlash, kasalliklarning tarqalishiga ta’sir etuvchi omillarni (oziqlantirish, saqlash sharoiti, sanitariya holati va boshqalar) tahlil qilish, profilaktik chora-tadbirlar tizimini — jumladan, vaksinalash, dezinfeksiya, dezinfestatsiya va deratizatsiya usullarini o‘rganish hamda ularning amaliy samaradorligini baholash vazifa qilib qo‘yiladi. Bundan tashqari, xo‘jaliklarda bioxavfsizlik choralarini takomillashtirish, kasalliklarning erta diagnostikasi va monitoring tizimini rivojlantirish, hamda ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi maxsus tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Profilaktik tadbirlar
2. Epizootiyaga qarshi tadbirlar

3. Profilaktik (oldini olish) tadbirlari yuqumli kasallikning bor-yo‘qligidan qat’i nazar amalga oshiriladi. Ushbu tadbirlarning maqsadi — yuqumli kasalliklarning paydo bo‘lishining oldini olishdir. Epizootiyaga qarshi tadbirlar esa yuqumli kasalliklar paydo bo‘lgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Dezinfeksion tadbirlari.

Tashqi muhit obyektlarida yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini yo‘qotish usullari va vositalari dezinfeksiya deb ataladi. Dezinfeksiyaning turlari quyidagicha bo‘ladi:

1. Profilaktik dezinfeksiya
2. Joriy dezinfeksiya
3. Yakuniy dezinfeksiya

1. **Profilaktik dezinfeksiya** — yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishining oldini olish maqsadida muntazam ravishda o‘tkaziladi. Bu turdagi dezinfeksiya sog‘lom xo‘jaliklarda ham reja asosida amalga oshiriladi.

2. **Joriy dezinfeksiya** — kasallik aniqlangan paytda infeksiya manbai mavjud joylarda doimiy ravishda o‘tkaziladi. Uning maqsadi kasallik qo‘zg‘atuvchilarining tarqalishini cheklashdir.

3. **Yakuniy dezinfeksiya** — kasallik bartaraf etilgandan so‘ng o‘tkaziladi. Bu jarayon infeksiya manbaini to‘liq yo‘qotish va hududni xavfsiz holatga keltirishga qaratilgan.

Profilaktik tadbirlarda dezinfeksiya bilan bir qatorda sterilizatsiya ham keng qo‘llaniladi. Biron-bir muhitda barcha mikroorganizmlarning (patogen, apatogen va sporali shakllarining) to‘liq yo‘q qilinishi va zararsizlantirilishi sterilizatsiya deb ataladi. Sterilizatsiya mikrobiologik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Dezinfeksiya tadbirlari o‘tkazilganda dezinfeksiya qilinadigan obyekt turi, muhitning fizik va kimyoviy tarkibi, dezinfeksiyalovchi vosita yoki usulning ta’sir etish muddati hamda harorati inobatga olinib, mos dezinfeksiya usuli tanlanadi.

Dezinfeksiya usullari uch xil bo‘ladi:

1.Fizikaviy usul. Bu usulda dezinfeksiya yuqori harorat (qaynatish, qizdirish, alanga bilan ishlov berish), quritish, bosim (bunda hujayraning sitoplazmatik membranasi funksiyasi buzilib, bir qator hayotiy muhim fermentlar denaturatsiyaga uchraydi), quyosh nurlari, kosmik (letal yoki mutagen ta’sirga ega) va rentgen nurlari, ultrabinafsha nurlar (100–380 nm bo‘lib, letal yoki mutagen ta’sir ko‘rsatadi), elektr toki, ultratovush hamda aeronizatsiya ta’siri orqali amalga oshiriladi

2. Kimyoviy usul. Ushbu usul tibbiyot va veterinariya amaliyotida keng qo‘llanilib, dezinfeksiya maqsadida turli kimyoviy moddalarni qo‘llashga asoslangan.

Kislotalarning bakteritsid xususiyatlari ularning elektrolitik dissotsiatsiyasiga bog‘liq bo‘lib, tarkibidagi H^+ ionlarining miqdori va ularning oksidlovchi xossalari bilan belgilanadi. Ishqorlarning faolligi esa dissotsiatsiya darajasiga hamda OH^- ionlarining miqdoriga bog‘liq. Ishqorlar ichida eng faol

modda KOH hisoblanadi, undan keyin NaOH va boshqalari keladi. Kislotalarga o‘xshab, ishqorlar ham ayrim mikroorganizmlarga to‘liq ta’sir ko‘rsata olmaydi.

Spirtlarning bakteritsid faolligi ularning molekulyar massasining ortishi bilan ma’lum darajagacha kuchayadi. Eng faol spirt metil spirti bo‘lib, undan keyin etil, propil, butil, amil va boshqa spirtlar keladi.

Yuzaki faol moddalarga yog‘ kislotalari, sovunlar va detergentlar kiradi. Ushbu moddalar hujayra yuzasidagi tortilish kuchini kamaytirib, sitoplazmatik membrananing funksiyasini buzadi. Fenol, krezol va ular qatoridagi moddalar hujayra qobig‘ini, keyinchalik esa oqsillarni yemiradi. Ushbu moddalar bakteritsid, fungitsid va viruslarga qarshi ta’sir xususiyatiga ega.

Oksidlovchi moddalar — xlor, yod, kaliy permanganat, vodorod peroksidi, xlorli ohak va xloraminlar mikroorganizmlar oqsillarini inaktivatsiya qiladi va denaturatsiyaga uchratadi.

Og‘ir metall tuzlari (qo‘rg‘oshin, mis, rux, kumush) bakterial hujayra sitoplazmasi yoki fermentlarini koagulyatsiyaga uchratadi hamda viruslarni ham zararsizlantiradi. Kumushli buyumlar suvga bakteritsid xususiyat berishi mumkin, chunki ular bakteriyalarning sitoplazmatik membranasining o‘tkazuvchanligini o‘zgartiradi.

Formaldegid dezinfeksiya uchun 40% li eritma ko‘rinishida qo‘llaniladi va oqsilning aminoguruhlarini bog‘lab, ularni denaturatsiyaga uchratadi.

Biologik usul ko‘pincha tibbiyot va veterinariyada kasalliklarni aniqlash, davolash va oldini olishda qo‘llaniladi (antibiotiklar, bakteriofaglar, bakteriotsinlar).

Dezinfeksion tadbirlar ikki xil bo‘ladi: o‘choqli (majburiy) va profilaktik. O‘choqli dezinfeksiya yuqumli kasallik chiqqanda o‘tkazilib, maqsadi va o‘tkazilish muddatiga ko‘ra joriy va yakuniy bo‘ladi.

Dezinfeksiya o‘tkazilganda quyidagilarga e’tibor berilishi kerak:

1. Dezinfeksiyalanadigan obyekt turiga;
2. Zararsizlanadigan muhitda patogen mikroblarning chidamliligiga;

3. Dezinfeksion vositalarning xususiyatlari va imkoniyatlariga (mikroblarni ma’lum bir muhitda va haroratda o‘ldirish xususiyatiga).

Parrandachilik xo‘jaliklarida veterinariya dezinfeksiyasi obyektlari sifatida parrandalar saqlanadigan binolar, ulardagi moslama va uskunalar, maxsus kiyim-kechak, parrandachilik binolariga yaqin yaylovlar hamda go‘ng hisoblanadi.

Parrandachilik xo‘jaliklariga kirish joylarida poyafzallarni dezinfeksiya qilish uchun dezinfeksion vannochka (uzunligi 1,5 m, chuqurligi 10 sm) o‘rnatiladi va uning ichidagi dezinfeksiyalovchi gilamcha har kuni dezinfektant eritma bilan namlab turiladi. Dezinfeksiyalovchi eritma sifatida 2% li o‘yuvchi natriy, 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak, 5% li kreolin emulsiyasi va 4% li ksilonaft emulsiyasi qo‘llaniladi.

Sovuq mavsumlarda, ya’ni havo harorati manfiy bo‘lgan sharoitlarda ushbu eritmalarga 10% osh tuzi qo‘shiladi. Binolarning har bir ajratilgan seksiyasi yoki bokslariga kirish joylarida ham dezinfeksion gilamchalar bo‘lishi shart.

Dezinfeksiya ikkita ketma-ket tadbirdan iborat:

Mexanik tozalash va zararsizlantirish vositalari bilan birgalikda o‘tkaziladigan tadbirlar haqiqiy dezinfeksiyaning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Mexanik tozalashning maqsadi — zararsizlantiriladigan binolar va hududlarni go‘ng, axlat va boshqa chiqindilardan to‘liq tozalashdir, chunki ushbu iflosliklar dezinfeksiyalovchi moddalar ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Go‘ng, ozuqa qoldiqlari va ishlatilgan iflos to‘shamalar yaxshilab namlanadi va tozalanadi. Keyingi bosqichda pol, devor va oxurlar suv bilan yuvilib tozalanadi. So‘ngra deraza va shiftlar tozalanadi.

Haqiqiy dezinfeksiya jarayonida binolardagi devorlar, eshiklar, derazalar, pol, shift, moslama va uskunalar yuzalari kimyoviy dezinfeksiyalovchi moddalar bilan yuvish yoki purkash (aerozol) usuli orqali zararsizlantiriladi. Ayrim ifloslangan obyektlar (masalan, temir va metall kataklar) alanga yordamida

kuydirish, qaynatish, yuqori haroratda quritish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh nurlari ta’sirida dezinfeksiya qilinishi mumkin.

Parrandalar saqlanadigan binolarda profilaktik, joriy yoki yakuniy dezinfeksiya o‘tkazilganda 1 m² yuzaga o‘rtacha 2 litr dezinfeksiyalovchi eritma sarflanadi. Barcha dezinfeksiyalovchi eritmalarning harorati 70°C bo‘lganda ularning ta’sir samaradorligi ortadi (aerozol purkagich masofasi 25–30 sm dan oshmasligi kerak). Kalsiylangan soda eritmasining harorati esa 90°C bo‘lishi tavsiya etiladi.

Sog‘liq uchun zararli bo‘lgan dezinfeksiyalovchi moddalar (o‘yuvchi natriy, oltingugurtli-karbol eritmasi, xlor, formaldegid eritmalari) suvli eritma ko‘rinishida qo‘llanilganda, hayvonlar va parrandalar binolardan chiqarib turilishi shart. Dezinfeksiyadan so‘ng 2–3 soat o‘tgach kataklar va oxurlar yuviladi, binolar esa yaxshilab shamollatiladi. Aerozol dezinfeksiya o‘tkazilganda ham yem-xashaklar va parrandalar binodan chiqarib turiladi.

Dezinfeksiya jarayonida avval pol, devorlar, derazalar, shift, oxurlar, moslama va uskunalar ketma-ket ishlovdan o‘tkaziladi va yakunda yana pol dezinfeksiyalanadi. Aerozol usulida dezinfeksiya o‘tkazish uchun oldindan tozalash ishlari bajarilgandan so‘ng bino to‘liq germetik yopiladi (ventilyatsion lyuklar, deraza va eshik tirqishlari berkitiladi) hamda ichki harorat 15°C, nisbiy namlik esa 60–100% darajada ta’minlanadi.

Suvli eritma bilan dezinfeksiya qilingandan so‘ng bino 3 soatga yopiq holda qoldiriladi. Ushbu ekspozitsiya muddati tugagach, bino yaxshilab shamollatiladi va oxurlar yuviladi. Aerozol usulida formaldegid preparatlari qo‘llanilgandan keyin ekspozitsiya muddati tugagach, parrandalarni kiritish uchun derazalar ochiq holda qoldirilishi lozim. Agar parrandalarni darhol kiritish zarur bo‘lsa, formaldegid nashatir spirti aerozoli bilan neytrallanadi. Bunda nashatir spirti miqdori formaldegid miqdorining yarmiga teng olinadi.

Parrandachilik xo’jaliklarida profilaktik dezinfeksiyani o’tkazilishi.

Parrandachilik xo‘jaliklarida profilaktik dezinfeksiya parrandachilik texnologiyasiga va parrandalar bilan to‘ldirilishiga qarab o‘tkaziladi:

- Parrandalar yaylovli saqlanadigan binolar yiliga ikki marta — bahorda va kuzda dezinfeksiya qilinadi.

- Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar kataklarda saqlanadigan binolar har safar yangi tovuqlar bilan to‘ldirilganda dezinfeksiya qilinadi.

- Jo‘jalar kataklarda o‘stiriladigan va saqlanadigan bino hamda sexlar parrandalarning har bir partiyasi joylashtirilganda va o‘tkazilganda dezinfeksiya qilinadi.

- Akklimatizatorlarda parrandalarning har bir yangi partiyasi joylashtirilganda va o‘tkazilganda dezinfeksiya qilinadi.

- Ajratib olingan xo‘rozchalar va boshqa parrandalar saqlanadigan bino hamda sexlar har safar parrandalar partiyasi (to‘dasi) almashganda dezinfeksiya qilinadi.

- Broylerlar o‘stirish sexlari har safar jo‘jalarning yangi partiyasi joylashtirilganda dezinfeksiya qilinadi.

- Parrandalar chuqur to‘shamalarda saqlanadigan bino va sexlar bir yilda bir marta, to‘shama almashtirilganda dezinfeksiya qilinadi.

Parrandachilik xo‘jaliklarida profilaktik dezinfeksiya o‘tkazish uchun parrandalar 1, 2, 5 yoki 6 kun muddatga binolardan chiqarib turiladi. Binolar tozalanadi, ta’mirlanadi, moslama va uskunalar bilan birgalikda barcha joylar 0,25% li sulfanol, 1,5–2% li issiq kalsiylangan soda eritmasi yoki qaynoq suv bilan yuviladi va so‘ngra dezinfeksiya qilinadi. Profilaktik dezinfeksiya uchun 5% li issiq kalsiylangan soda, 20% li yangi so‘ndirilgan ohak, 2% li issiq o‘yuvchi natriy eritmasi, 3% li kreolin emulsiyasi, 2% li ksilonaft emulsiyasi, 5% li naftalizol hamda 1% li formaldegid eritmalari qo‘llaniladi.

Dezinfeksiyadan so‘ng binolar 3 soat davomida germetik yopiq holda saqlanadi (ekspozitsiya muddati). Kichik hajmli uskunalar issiq dezinfeksiyalovchi eritmalarga to‘liq botiriladi va ma’lum muddat davomida ushlab turiladi.

Inkubatoriylarda profilaktik dezinfeksiya tuxumlarni inkubatsiyaga qo‘yishdan oldin va keyin o‘tkaziladi. Dezinfeksiyadan avval inkubator binosi, inkubatorlar, tuxum omboridagi moslama va uskunalar yaxshilab tozalanadi. Inkubator devorlari va shifti 20% li yangi so‘ndirilgan ohak eritmasi bilan oqlanadi, bo‘yalgan yoki kafelli yuzalar esa yuqorida ko‘rsatilgan dezinfeksiyalovchi eritmalardan biri bilan ishlov beriladi.

Shkafli va xonali inkubatorlarni formaldegid eritmalari bilan dezinfeksiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun inkubatorning 1 m^3 ichki hajmiga 45 g formalin, 30 g kaliy permanganat va 20 ml suv olinadi hamda 35–37°C harorat va 60–80% namlik sharoitida formaldegid bug‘i hosil qilinib dezinfeksiya amalga oshiriladi. Formaldegid bug‘ini olish uchun kaliy permanganat sopol idishga solinadi va idish metall taglikka (satelga) joylashtiriladi (suyuqlik polga sachramasligi uchun). So‘ngra idishga suv va formalin quyiladi hamda inkubator 1 soatga yopib qo‘yiladi. Ekspozitsiya vaqti tugagach, inkubator shamollatiladi (formaldegid nashatir spirti bilan neytrallanishi mumkin). Jo‘jalarni tashish uchun ishlatiladigan idish va taralar har bir foydalanishdan oldin va keyin dezinfeksiya qilinadi.

Rejali profilaktik dezinfeksiyadan tashqari parrandachilik xo‘jaliklarida binolar va inkubatorlar har oyda bir marta sanitariya kunlarida ham dezinfeksiya qilinadi.

Yuqumli kasalliklarda o‘tkaziladigan majburiy dezinfeksiya.

Parrandalar tuberkulyozida profilaktik dezinfeksiya yuqorida aytib o‘tilgan muddat va tartibda o‘tkaziladi. Dezinfeksiyalovchi vositalardan quyidagilar qo‘llaniladi: 3% formaldegid va 3% o‘yuvchi natriy saqlovchi eritma (yuqori dezinfeksion faollikka ega bo‘lib, yakuniy dezinfeksiya uchun qo‘llanishi maqsadga muvofiq); 4% karbol kislota, 10% kerosin, 5% kreolin va 81% suv saqlovchi eritma; 20% yangi so‘ndirilgan ohak 1 soat oralig‘ida 3 marta; 5% xlorli ohak eritmasi; 10% li yod eritmasi 3 soatlik ekspozitsiya muddati bilan qo‘llaniladi. Agar parrandalarni binodan chiqarishning imkoni bo‘lmasa,

dezinfeksiya 1 soat oralig‘ida 3 marotaba 20% li ohak eritmasi bilan amalga oshiriladi. Aerozol dezinfeksiya uchun 3 qism formalin va 1 qism kreolin yoki ksilonaft saqlovchi eritma 24 soatlik ekspozitsiyada, binoning 1 m³ hajmiga 20 ml hisobidan qo‘llaniladi.

Parrandalar pasterellyozida 20% li yangi so‘ndirilgan ohak; 3% li issiq kreolin emulsiyasi (2 soat); 2% li ksilonaft (2 soat); 2% li issiq o‘yuvchi natriy (1 soat); 1% faol xlor saqlovchi xlorli ohak (harorat 16°C, ekspozitsiya 1 soat); 0,5% li formaldegid eritmasi (16°C, 3 soat) qo‘llanilishi mumkin. Aerozol dezinfeksiya uchun 20% li formaldegid eritmasi 3 soatlik ekspozitsiyada, binoning 1 m³ hajmiga 20 ml hisobidan qo‘llaniladi.

Parrandalar tifida 1 soat oralig‘ida 2 marta 20% li yangi so‘ndirilgan ohak; 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak; 2% li issiq o‘yuvchi natriy; 5% li kreolin; 5% li ksilonaft; 2% li formaldegid; 3 soat ekspozitsiyada 10% li issiq kalsiylangan soda eritmasi ishlatiladi. Agar parrandalarni chiqarishning imkoni bo‘lmasa, dezinfeksiya 1 soat oralig‘ida 2 marta 20% li yangi so‘ndirilgan ohak bilan amalga oshiriladi. Aerozol usuldagi dezinfeksiya formalin yoki formalin–kreolin aralashmasi (3 qism formalin va 1 qism kreolin yoki ksilonaft) bilan 6 soat davomida, binoning 1 m³ hajmiga 15 ml hisobidan o‘tkaziladi.

Parrandalar pullorozida 2% li issiq o‘yuvchi natriy; 10% li issiq kalsiylangan soda; 1% li formaldegid (2 soat); 3% faol xlor saqlovchi xlorli ohak; 5% li ksilonaft; 20% li yangi so‘ndirilgan ohak; 4% li issiq yoki 6% li sovuq naftalizol eritmalari qo‘llaniladi. Tuproqli shuvalgan pollar uchun 5% li o‘yuvchi natriy yoki 5% faol xlor saqlovchi xlorli ohak ishlatiladi. Aerozol dezinfeksiyasi formalin bilan (1 m³ ga 15 ml, 3 soat), 20% li eritma bilan (1 m³ ga 20 ml, 3 soat) hamda formaldegid–kreolin aralashmasi bilan (3 qism formaldegid va 1 qism kreolin yoki ksilonaft) 3 soat ekspozitsiyada, 1 m³ ga 20 ml hisobidan amalga oshiriladi.

Parrandalarning kolibatsillez, salmonellyoz va psevdotuberkulyoz kasalliklarida dezinfeksiya uchun 20% li yangi so‘ndirilgan ohak (2 marta); 2%

faol xlor saqlovchi xlorli ohak; 2% li issiq o‘yuvchi natriy; 5% li kreolin; 2% li formaldegid; 5% li ksilonaft eritmalari qo‘llaniladi. Agar parrandalar binoda qoldirilsa, dezinfeksiya 1 soat oralig‘ida 2 marotaba 20% li yangi so‘ndirilgan ohak bilan o‘tkaziladi.

Yuqumli laringotraxeitda 2% li issiq o‘yuvchi natriy (2 soat); 2% li formaldegid (2 soat); 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak (3 soat); 1 soat oralig‘ida 2 marta 20% li yangi so‘ndirilgan ohak; 10% li kalsiylangan soda (4 soat) qo‘llaniladi. Bundan tashqari, binolar havosini dezinfeksiya qilish maqsadida sut kislotasi yoki rezorsin binoning 1 m^3 hajmiga 25 mg hisobidan purkalishi mumkin. Ushbu preparatlar kun davomida 4–5 marta (1,5–2 soat oralig‘ida) aerozol generator yordamida purkalanadi yoki elektr plitada bug‘lantiriladi. Parrandalar dezinfeksiya vaqtida binodan chiqarilishi shart emas.

Parrandalar chechagida 3% li o‘yuvchi natriy (3 soat); 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak (4 soat); 2% li formaldegid (3 soat); 1 soat oralig‘ida 2 marta 20% li yangi so‘ndirilgan ohak qo‘llaniladi.

Parrandalar o‘lati (pest) kasalligida 2% issiq o‘yuvchi natriy; 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak; 2% formaldegid (har biri 3 soat ekspozitsiya bilan); 1 soat oralig‘ida 2 marta 20% li yangi so‘ndirilgan ohak qo‘llaniladi.

G‘ozchalarning virusli gepatitida 1% li formaldegid; 4% li issiq o‘yuvchi natriy (6 soat); 1,5% faol xlor va 1,2% erkin ishqor saqlovchi natriy gipoxlorit (6 soat); 5% li yod eritmasi (6 soat) qo‘llaniladi. Aerozol dezinfeksiyada formalin (1 m^3 ga 15 ml, 12 soat) yoki 20% li formaldegid (1 m^3 ga 20 ml, 24 soat ekspozitsiya) ishlatiladi.

Parrandalar mikoplazmozida 2% faol xlor saqlovchi xlorli ohak (2 soat); 20% li issiq o‘yuvchi natriy (2 soat); 2% li formaldegid (2 soat); 3% li issiq ksilonaft (3 soat); 3% li yod eritmasi (1 soat); 20% li yangi so‘ndirilgan ohak qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. Parrandachilik xo‘jaliklarida jo‘jalarni zoogigiyenik talablarga mos binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya

talablariga qat’iy rioya qilish yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash joizki, yuqorida keltirilgan profilaktik tadbirlar ijobiy natija berayotganini inobatga olib, ushbu usullarni parrandachilik xo‘jaliklarida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Abduhalilova, G. I., Makhamadalieva, M. U., & Khojakhanov, S. I. (2023). Fish branchiomycosis prevention measures. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 247-252.
2. Xo’jaxonov, S., Xo’jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ YeYMERIOZINING KIMYoPROFILAKTIKASIDA SAMARALI YeYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASh. Yevraziyskiy jurnal meditsinskix i yestestvennыx nauk, 3(4 Part 2), 75-78.
3. G‘aniev, S. S., & Xo’jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYa LABORATORIYaLARIDA SUTNI VETERINARIYa SANITARIYa YeKSPERTIZADAN O ‘TKAZISh TALABLARI. Scientific Impulse, 1(8), 586-592.
4. Xo’jaxonov, S., Xo’jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). PARRANDAChILIK XO ‘JALIKLARIDA YuQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLISh ChORA TADBIRLARI. Yevraziyskiy jurnal meditsinskix i yestestvennыx nauk, 3(5), 77-84.
5. Xo’jaxonov, S. I., & Sharopov, A. U. (2023). IQTIDORLI TALABALAR BILAN IShLAShNI TAShKIL YeTIShNING ASOSIY VAZIFALARI. Journal of Integrated Yeducation and Research, 2(8), 33-36.
6. Berdievich, D. R. (2023). QORAMOLLAR SISTISERKOZINING KELIB ChIQIShI, DAVOLASh VA OLDINI OLISh ChORA TADBIRLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 23-30.
7. Berdievich, D. R. (2023). GELMINTOZLARGA TAShXIS QO ‘YISh USULLARI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 10(1), 3-13.

8. Berdievich, D. R. (2023). To Determine the Yeffectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Yexperiments. Yeuropean Journal of Agricultural and Rural Yeducation, 4(1), 8-9.
9. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). Measures for the prevention of diseases caused by disorders of bee nutrition and feeding conditions. Academicia Globe, 3(03), 5-8.
10. Davlatov, R. B., & Berdiev, X. R. (2021). TOVUQ KOLIBAKTERIOZINING KIMYoPROFILAKTIKASIDA OFLOSANNING SAMARADORLIGI. Vestnik Veterinarii i Jivotnovodstva, 1(1).
11. Subxonovich, H. P., Yergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helmintosis diseases of one-hoied animals. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 880-883.
12. Berdiev, X. R., & Davlatov, R. B. (2021). Effektivnost Yenrovit-O pri ximicheskoy profilaktike kolibakterioza sыplyat.
13. Ibrohimov, U. D., Maxamadalieva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OShQOZON–IChAK TIZIMI PATOLOGIYaSI. AGROBIOTEXNOLOGIYa VA VETERINARIYa TIBBIYoTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.
14. Mahamadalieva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. Uchenыy XXI veka, (10 (81)), 12-14.
15. Davlatov, R. B. (2023). TOVUQ KOLIBAKTERIOZI (ADABIYoTLAR ShARXI). INNOVATION IN THE MODERN YeDUCATION SYSTEM, 3(26), 107-111.
16. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia"," necrotic hepatitis").
17. Berdievich, D. R. (2023). To Determine the Yeffectiveness of Antibiotics in Preventing Chicken Colibacteriosis Based on Yexperiments. Yeuropean Journal of Agricultural and Rural Yeducation, 4(1), 8-9.

18. Nurmamatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Yeffects of drugs on blood indicators in mixing chicken yeimeriosis and pullorosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 615-617.
19. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
20. Xudjamshukurov, A. N. (2021). TOVUQ ASKARIDIOZIDA ASKAZIN ANTIGELMINTIGINI QO‘LLASh NATIJALARI. Internauka, (8-3), 44-46.
21. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. Ustozlar uchun, 89(1), 82-90.
22. Iskandar o’g‘li, Q. A., & Razzoq Norbo’ta o’g, Ye. (2026). PARRANDALARNING ChEChAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO ‘YISh. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UChUN YuQTIRISh USULINI O'RGANISh. Luchshie intellektualnыe issledovaniya, 62(1), 347-357.
23. Yerkinjon o’g‘li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYaSI YoRDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYuKASSL VIRUSIDAN FARQLASh. TADQIQOTLAR, 79(2), 57-65.
24. Farxod o’g‘li, A. S., & Sherali o’g‘li, J. A. (2026). PARRANDALARDA ChEChAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. Luchshie intellektualnыe issledovaniya, 62(1), 274-283.
25. Olim o’g‘li, R. S., & Umidjon Ma’mur o’g, B. (2026). QUTURISh KASALLIGINING ALOMATLARI, TAShXISI VA OLDINI OLISh USULLARI. Luchshie intellektualnыe issledovaniya, 62(1), 61-68.
26. Shokirxon o’g, G. A. S. (2025). SOTUV UChUN BOZORGA OLIB KELINAYoTGAN GO ‘ShT MAHSULOTLARINI YeKSPERTIZA QILISh TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 240-245.
27. Shokirxon o’g, G. A. S. (2025). GO ‘ShT MAHSULOTLARINI YeKSPERTIZADAN O ‘TKAZISh TARTIBI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 211-216.

28. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). GO'ShT VA GO'ShT MAHSULOTLARIDAGI SALMONELLYoZ BAKTERIYaSINI ANIQLAShDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 225-231.
29. Shokirxon o'g, G. A. S. (2025). KARTOShKA SIFATINI ORGANOLEPTIK USULDA BAHOLASh. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(1), 232-239.
30. Oglu, K. S. I., & Berdievich, D. R. (2024). DETERMINATION OF THE YeFFECTIVENESS INDICATORS OF OFLOSAN AND ALISERYL WS ANTIBIOTICS IN PREVENTING COLIBACTERIOSIS. Yeurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(12), 33-36.
31. Abdusattarov, A., Gaipova, M., Mengliev, G., Khujakhonov, S., & Amirov, A. (2024). Ways to increase the yeffectiveness of hyperimmune serum against colibacteriosis, salmonellosis and pasteureellosis of lambs. In Ye3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03040). YeDP Sciences.
32. BUZILIShLARI, YoShJM. "Uluqov Behzod Karomat o'g'li magistranti, Xo'jaxonov Shoxruzxon Idirisxo'ja o'g'li magistranti, Jumanazarova Madina Qahramon qizi." BBK 72.4 A43: 33.
33. Juraqul o'g'li, B. S. (2026). QUTURISh KASALLIGIGA LABORATORIYaDA DIAGNOZ QO 'YISh. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *62*(2), 213-219.
34. Muhammadali o'g'li, R. R., Faxriddin o'g'li, B. L., & Ulug'Bek o'g, I. S. (2026). OTLARNING YuQUMLI ANEMIYa, AFRIKA O 'LATI KASALLIGI. *Luchshie intellektualnыe issledovaniya*, *62*(2), 390-399.
35. Juraqul o'g'li, B. S. (2026). QUTURISh KASALLIGIGA LABORATORIYaDA DIAGNOZ QO 'YISh. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, *62*(2), 213-219.
36. Qizi, A. S. A., & Qizi, O. J. B. (2026). ASALARILARNING VIRUSLI KASALLIKLARI. *Ustozlar uchun*, *89*(1), 82-90.

37. Iskandar o'g'li, Q. A., & Razzoq Norbo'ta o'g, Ye. (2026). PARRANDALARNING ChEChAK KASALLIGIGA DIAGNOZ QO 'YISh. TIMALGAN TOJGA VA PAR FOLLIKULALARIGA TAJRIBA UChUN YuQTIRISh USULINI O'RGANISh. *Luchshie intellektualnыe issledovaniya*, *62*(1), 347-357.
38. Yerkinjon o'g'li, S. J. (2026). GATR-REAKSIYaSI YoRDAMIDA GRIPP VIRUSINI NYuKASSL VIRUSIDAN FARQLASh. *TADQIQOTLAR*, *79*(2), 57-65.
39. Farxod o'g'li, A. S., & Sherali o'g'li, J. A. (2026). PARRANDALARDA ChEChAK KASALLIGI PROFILAKTIKASI. *Luchshie intellektualnыe issledovaniya*, *62*(1), 274-283.
40. Olim o'g'li, R. S., & Umidjon Ma'mur o'g, B. (2026). QUTURISh KASALLIGINING ALOMATLARI, TAShXISI VA OLDINI OLISh USULLARI. *Luchshie intellektualnыe issledovaniya*, *62*(1), 61-68.